


## 2022- yil yanvar – fevral oylarida uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar - fevral oyida Samarqand viloyatida jami 932,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 115,8 % ni tashkil etdi.




### 2022- yil yanvar - fevral oyida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mukchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʼlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2022- yil yanvar - fevral oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2022- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,5 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,3 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 173 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar - fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilishi ishlari hajmi 124,4 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 54,3 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar - fevral oylarida jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 28,6 % ni tashkil etdi.




### **Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

	<b>Holatiga ko'ra:</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan, (+,-)</b>
	<b>01.03.2021- yil</b>	<b>01.03.2022- yil</b>	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3150</b>	<b>3323</b>	173
Samarqand sh.	1104	1137	33
Kattaqo'rg'on sh.	104	127	23
tumanlar:			
Oqdaryo	155	163	8
Bulung'ur	69	74	5
Jomboy	120	134	14
Ishtixon	145	142	-3
Kattaqo'rg'on	124	137	13
Qo'shrabot	68	70	2
Narpay	85	84	-1
Payariq	259	278	19
Pastdarg'om	315	308	-7
Paxtachi	64	73	9
Samarqand	140	153	13
Nurobod	46	61	15
Urgut	221	241	20
Toyloq	131	141	10



## Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.03.2022- yil holatiga



**Ma'lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,2 %), Pastdarg'om (9,3 %) va Payariq (8,4 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar - fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **185,3** mlrd. soʻnni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan 290,6 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi nisbatan ulushi 19,9 % ni tahskil qildi.



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da




2021- yil  
yanvar - fevral oylari      2022- yil  
yanvar - fevral oylari

**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **60,3** %), Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,8** %), Pastdargʼom tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **10,5** %), va Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,3%**) tumanlarga toʼgʼri keldi.



## Qurilish ishlari umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2022- yil yanvar - fevral oylari
- 2021- yil yanvar - fevral oylari

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar - fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'mayish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **64,3 %** i bajarilib, 2021- yilning yanvar -fevral oylariga nisbatan **7,8 %** punktga kamaygan.


Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil etgan holda **599,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **15,8 %** ni tashkil etib, **147,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **4,2 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

Mlrd,so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **20,9** mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o’sish sur’ati 2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan **54,1 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,2 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **911,1** mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o’sish sur’ati **118,9 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,8 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2022- yil  
yanvar – fevral  
oylari



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar – fevral oylari




72,5 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **72,5%** yoki **675,6 mlrd. so'mni** tashkil etgan.



27,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **184,7 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **27,3 %** ni tashkil etdi.



51,2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **345,9 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **51,2%** ni tashkil etdi.



21,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **145,0 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **21,5%** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar- fevral oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>932,0</b>	<b>115,8</b>	<b>675,6</b>
Samarqand sh.	301,6	112,5	224,0
Kattaqo‘rg‘on sh. tumanlar:	14,3	99,4	12,2
Oqdaryo	66,3	94,0	59,2
Bulung‘ur	25,2	102,1	20,9
Jomboy	39,9	98,7	34,0
Ishtixon	41,7	101,9	34,4
Kattaqo‘rg‘on	24,9	98,9	21,3
Qo‘schrabot	18,9	95,2	16,8
Narpay	23,6	94,2	21,2
Payariq	57,1	102,6	46,8
Pastdarg‘om	54,6	115,3	39,8
Paxtachi	18,9	99,8	16,1
Samarqand	43,9	108,7	34,0
Nurobod	9,2	100,8	7,9
Urgut	59,8	118,5	42,4
Toyloq	132,1	247,7	44,6

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2021- yil yanvar – fevral oylari

**3,8**




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**56,1**



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

**40,1**



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**2,7**



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**54,3**



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

**43,0**



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **29,8** % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar - fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **21,9** % punktga ko'paydi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar - fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **31,1** % punktga kamaydi, **33,9** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar - fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **9,2** % punktga ko'paydi, **36,3** % ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **12,9 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan **14,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **86,7 %** (**14,8 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,4 %**ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar - fevral oylariga nisbatan **9,3%** punktga kamaydi. **97,9 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **9,3 %** punktga ko'paydi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar - fevral oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.  
301,6

1

2

Toyloq  
132,1

Pastdarg'om  
54,6

3



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod  
9,2

1

2

Qo'shrobot  
18,9

Paxtachi  
18,9

3



## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (66) 230-45-32*